

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar 835

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi 838

M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari 841

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition 847

M.T.Abdullayeva, M.Nazarov

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati 850

M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova

Soil pollution by waste and measures to it prevent 854

D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari 857

D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi 862

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar 868

ILMIY AXBOROT**Z.V.Alimova, M.A.Usmanova**

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida 871

X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova

Isajon Sultoning "Ozod" romanida intertekstuallik 876

M.A.Jo'rayeva

Abdulla Avloni ijodida safarnomaning o'rni 880

A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi 884

I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari 887

A.G.Sabirdinov

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida 890

A.A.Qayumov

Hastalangan ruhiyat tasviri 894

R.M.Umurzakov

Avtobiografik qissalarda bola obrazi 899

Q.V.Yo'ichihev, A.Charos

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni 903

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida 907

G.A.Ikromova

Dramalar tilida antroponomislarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida) 913

I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar 918

N.A.Abuvaliyeva

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi 922

A.R.Dadajonov

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi 927

D.R.Teshaboyev

Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishiqlik 930

I.T.Axmадjonov, A.R.Dadajonov

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari 936



УО'К: 631:452.631.481

**TUPROQNI SOG'LOMLASHTIRISHDA MIKROORGANIZMLAR VA MAYDA
HAYVONLARNING AHAMIYATI**

ЗНАЧЕНИЕ МИКРООРГАНИЗМОВ И МАЛЫХ ЖИВОТНЫХ В ЗДОРОВЬЕ ПОЧВЫ

IMPORTANCE OF MICROORGANISMS AND SMALL ANIMALS IN SOIL HEALTH

Abdullayeva Maxsuda To'lanovna 

¹Farg'ona davlat universiteti botanika bioteknologiya va ekologiya kafedrasи katta o'qituvchisi (PhD)

Nazarov Mahamadali² 

²Farg'ona davlat universiteti q.x.f.n dotsent

Annotatsiya

Tuproq – tarixiy tarkib topgan murakkab, mustaqil tabiiy jism bo'lib, u tabiiy landshaftlarning asosi hisoblanadi. Biosferadagi bajarilgan faoliyatiga qarab, tuproqni organik hayot zanjirining eng muhim vazifasi deb atasa bo'ladi. Biosferadagi tuproqning eng muhim roli shundaki, barcha organizmlarning qoldigqlari tuproqda parchalandi va yana mineral birikmalarga aylanadi. Tuproq qatlamisiz yer yuzida hayotni tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

Абстрактный

Почва – сложное, самостоятельное природное тело исторического состава, составляющее основу природных ландшафтов. Почву в зависимости от ее функции в биосфере можно назвать важнейшей функцией цепи органической жизни. Важнейшая роль почвы в биосфере состоит в том, что остатки всех организмов разлагаются в почве и превращаются в минеральные соединения. Невозможно представить жизнь на Земле без слоя почвы.

Abstract

Soil is a complex, independent natural body with a historical composition, which is the basis of natural landscapes. Depending on its function in the biosphere, soil can be called the most important function of the organic life chain. The most important role of the soil in the biosphere is that the remains of all organisms are decomposed in the soil and turn into mineral compounds. It is impossible to imagine life on earth without the soil layer

Kalit so'zlar: Struktura, agrofizik, tunganak bakteriyalari, meliorativ holatini, karotin, protein, mineralashayotgan tunganaklar, sideratsiya, donlilar va butgullilar.

Key words: Structure, agrophysics, nodule bacteria, land reclamation, carotene, protein, mineralizing nodules, sideration, cereals and legumes

Ключевые слова: Строение, агрофизика, клубеньковые бактерии, мелиорация, каротин, белок, минерализующие клубеньки, сидерация, зерновые и бобовые культуры

KIRISH

Almashlab ekish dehqonchilikning asosi, paxtachilikning poydevori hisoblanadi. Chunki almashlab ekishni joriy qilish natijasida tuproq unumdorligi ortadi, hosildorlik ko'payadi, chorvachilik esa sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanadi. Paxtachilikda almashtirilb ekiluvchi o'simlik asosan beda va don dukkaklilar hisoblanadi. Ko'r yillik kuzatishlar va tajribalar natijasida g'o'zaning eng samarali o'tmishidosh ekini beda deb topilgan. Paxta-beda almashlab ekinishi natijasida tuproq o'simlik uchun zarur bo'lgan ozuqa elementlariga to'ldiriladi. Tuproqning agrofizik xossalari ijobiyl tomonga o'zgaradi, o'simliklar uchun tuproqdagi qulay holat uzoq vaqt davomida saqlanib turadi.

Respublikamizning sug'oriladigan tuproqlarida biologik jarayonlar jadal ravishda o'tadi. Shu bois organik moddalar tez chiriydi va mineralashadi. Bu esa tuproqdagi gumusning kamayishiga, strukturaning yo'qolishiga, uning fizik xossalari yomonlashishiga olib keladi. Paxta-beda almashlab ekish esa yuqoridagi salbiy ko'rsatkichlarga barham beradi. Shuning uchun paxtachilikda va donchilikda almashlab ekish joriy qilinganda ko'r yillik dukkakli ekinlar va bir yillik o'simliklardan foydalanish tavsiya

EKOLOGIYA

etilgan. Ko'p yillik dukkakli ekinlar tuproq unumdorligini tiklash, organik moddaga boyitish, strukturasini yaxshilash vazifasini bajarishlari bilan organik modda bilan boyitishni nazarda tutib, hamda dalada chirindini to'plash masalasini xal qilish zarur. Mana shu talablarga javob beradigan almashlab ekish tizimini paxtachilikda joriy etish kerak. Bu vazifa faqat bir yerda uch yilgacha dukkakli ekinlar o'stirish natijasida erishish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Paxtachilikda almashlab ekish masalalarining ilmiy asosda o'rganib tadqiq qilishda O'zFA akademiklari V.M.Muhammadjonov, S.N.Rijov, qishloq xo'jalik fanlari doktori Z.S.Tursunxujaev, qishloq xo'jalik fanlari nomzodlari V.G.Berezovskiy, P.M.Bodrov, I.A.Dorman va boshqalar ko'p xizmat qildilar. Shu tadqiqotchilarning tajribalari, ilmiy ishlari natijasida paxtachilikda beda eng samarali o'tmishdosh ekin deb topilgan. Beda tuproqni chirindiga, azotga boyitadi, uning fizikaviy xossasi va mikrobiologik faoliyatni yaxshilaydi. Bu ijobji ko'rsatkichlarning hammasi tuproq unumdorligini yuqori darajaga ko'tarish va uni qayta tiklash imkonini beradi va bedapoya o'rniga chigit ekilgan maydonlarda paxta hosildorligini oshiradi.

Almashlab ekish davrida beda yuqori agrotexnik sharoitda o'stirilganda tuproqning haydov qatlamida gumus miqdori bir gektariga 10-15 tonnagacha ko'payadi. Bu esa tuproqdagi ekologik vaziyatni yaxshilaydi, bedaning qalin joylashgan ko'p ildizlari tuproqning har tomoniga qarab xarakat qiladi va o'sadi. Bedapoyadan keyin bu ildizlar qurib, tuproqni organik moddaga boyitadi hamda uning fizik va suv xossalarni qulay tomonga o'zgartiradi. Tuproqning suv singdirish qobiliyati yaxshilanadi, sho'rangan tuproqlarda dalani sug'orish natijasida zararli tuzlar miqdori yuvilib kamayadi.

Bedapoya haydalib buzilgandan keyin chigit ekilib g'o'za o'stirilgan birinchi yillari paxta maydonida o'simliklarni sug'orish soni va umumiy sarflanadigan suv miqdori anchagina kamayadi. Masalan, O'zPITIda o'tkazilgan tajriba ma'lumotlariga qaraganda eskidan haydalib kelinadigan yerlarda dala 8 marotaba sug'orilib, gektariga 43,2 sentner paxta hosili olingan. Bedapoya haydalib buzilgandan keyin g'o'za o'stirilganda ikkinchi yili dalalar 7 marotaba sug'orilib, bu ko'rsatkich 49.9 sentnerni tashkil etgan.

Bedaning ildizlarida joylashgan tuganak bakteriyalari havodagi azotni o'zlashtiradi. Shu bois tuproqda, beda ildizlarida va moyalarida ko'p miqdorda azot to'planadi. Bedaning ildizi tarkibida 2 foizgacha azot bor. Bedaning 2-3 yillik ildizlari hamda o'simlik qoldiqlarini haydab yuborilishi natijasida tuproqdagi biologik azot miqdori gektariga 400 kg gacha ko'payadi. Har yili qurib mineralashayotgan tuganaklar, mayda va yirik ildizlar hisobiga hamda bedapoyani sifatli parvarish qilish natijasida tuproqni 0.40 sm lik qatlaming bir gektariga to'plangan azot miqdori 600-800 kg gacha etishi mumkin. (A.L.Toropkina; 1971) tadqiqotlari natijasida ma'lum bo'lishicha uch yil davomida o'stirilgan beda o'zidan keyin tuproqning 30 smlik qatlamida gektariga 10.5-12.0 tonna quruq ildiz qoldiqlarini 60 foizi beda ekilgandan keyin birinchi hosil bo'ladi. Bedapoyaning ikkinchi yili 40 foiz ildiz qoldig'i vujudga keladi. Uchinchi yili esa beda ildizlari deyarli o'smaydi va ko'paymaydi.

Bedaning uchinchi yili o'suvida tuproqda to'plangan azot miqdori gektariga 415,9 kg ni tashkil qildi. Xarakatchan fosfor miqdori 86,9 kg ga, kalyi esa 272,5 kg ga teng bo'ldi. Bedapoya haydalgandan keyin paxta maydonlaridagi tuproqlarda organik qoldiqlar chirib, mineralashishi natijasida yildan-yilga kamayib boradi. Bu ko'rsatkich bedapoya buzilib uchinchi yil g'o'za o'stirilganda 7,1 tonna, oltinchi yil esa gektariga 4,5 tonna qolgan.

Almashlab ekish joriy qilinmagan maydonlarda paxta yakka xokimligi xukm surgan sharoitda tuproqqa juda kam miqdorda organik modda tushadi (3,5 tonna). Tuproqda qolgan organik moddalar miqdori va ularning kimyoiy tarkibi shu erdag'i mikroorganizmlarning rivojlanishiga va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Bedaning yana bir ijobji ekologik xususiyati sho'rangan yerlarda tuproqning meliorativ holatini yaxshilashdir. Bedaning qalin ko'chati, barglari ko'pligi tufayli ular tuproq sathini qoplab soyalatadi, natijada suvning bug'lanishi kamayadi, zararli tuzlar tuproqning yuqori qatlamlariga ko'tarilmaydi. Bedaning yoz paytida sug'orilishi sho'rangan yerlarda tuzlarni yuvish tadbiri bo'lib ham xizmat qiladi, ya'ni bedapoyalarni bostirib sug'orish natijasida tuzlar tuproqning chuqur qatlamlariga yuvilib ketadi. Zararli tuzlarni tuproqning pastki qatlamlaridan yer yuzasiga ko'tarilishi jarayoni to'xtab qoladi. Shu bois bedapoyalardagi sizot suvlarning sathi doim chuqurroq bo'ladi. Paxta dalalarida esa sizot suvlarini yuqoriroq joylashgan bo'ladi. Bedapoyaning tuproqni meliorativ holatini yaxshilash xususiyati O'zPITIning Markaziy meliorativ tajriba stansiyasida olib borilgan kuzatishlarda tasdiqlandi. Bu kuzatishda tuproqning 3 metrlik qatlamidagi sho'rning pasayishi 3 yillik bedapoyada aniqlandi. O'zPITI Farg'ona tajriba stansiyasining sho'rangan tuproqlarida turli xil almashlab ekish tizimlari ustida olib borilgan ko'p yillik tadqiqot va tajriba natijalari ham diqqatga sazovordir. Bu tajribada beda almashlab eqilishi

davomida tuproqning meliorativ holatiga (sho'rsizlanishiga) ta'siri o'rGANildi. Aniqlanishicha, beda bilan band bo'lgan dalada birinchi yildan boshlab tuproqning sizot suvlari joylashgan satxigacha sho'rsizlanish jarayoni vujudga keldi. Beda uchinchi yil o'stirilishda tuproqning barcha qatlamlari bo'yicha sho'rsizlanish jarayoni ayniqsa jadal o'tadi.

Beda o'simligining tuproq sho'rini ketkazishdagi samarasi yaxshi, sifatli ishlab turgan zovur tarmoqlari bo'lgandagina ijobjiy natija beradi. Shu bilan bir qatorda beda o'suv davridagi sug'orish o'z vaqtida o'tkazilgan va tegishli parvarish, tadbirlar sifatli o'tkazilgan taqdirdagina tuproqning meliorativ holati yaxshilanadi. Beda tuproqning meliorativ holatini yaxshilashda tengi yo'q ekin bo'lishiga qaramay, u yoshlilik paytida sho'rga chidamsiz bo'ladi. Tuproqda 0,7-1,5 foiz zararli tuz mavjud bo'lgan sharoitda beda urug'i unib chiqadi. Sho'r yerlarga ekilgan beda urug'lari tuproqning yuqori -20 santimetrik qatlamidagi xlorli tuz miqdori 0,005-0,015 foizdan oshmagan taqdirdagina ko'karadi. Tuproqning sho'r miqdori yuqoridagi ko'rsatkichlardan ko'proq bo'lsa, g'o'za nihollarining tuproqdan unib chiqishi qiyinlashadi va kelgusida ular nobud bo'ladilar. Beda o'sgan sari uning sho'rga chidamliligi orta boradi. Sho'rangan sharoitlarda almashlab ekishda bedaning paxta hosiliga ta'siri dala satxining ko'kpoya va barglar bilan qoplanishiga bog'liq.

Ko'p yillik tajribalar natijasiga asosan aytish mumkinki, bedapoya buzilgandan keyin g'o'za o'stirilganda vilt 40-50 foizga kamayishi bilan bir qatorda paxta hosildorligi oshib, uning sifati ijobjiy tomonga o'zgaradi. Lekin bedapoya buzilgandan keyin 6 va 7 yilda paxta ekilganda g'o'zaning kasallanishi ko'payib, almashlab ekish joriy qilinmagan maydonlardagi kasallanish darajasiga teng bo'ladi. Bu hollarda maxsus almashlab ekish sxemalarini joriy qilish, ya'ni g'o'za o'simligini boshqa ekinlar bilan tez-tez almashtirib turishga to'g'ri keladi.

Paxtachilikda almashlab ekishni joriy qilishdan maqsad tuproq ekologik vaziyatni ijobjiy tomonga o'zgartirib paxtadan mo'l hosil olishni ta'minlashdir. Shu bilan bir qatorda u chorvachilikni ko'k ozuqa bilan ta'minlash masalasini ham hal qiladi, chunki pichan va ko'k poyada protein boshqa ozuqlardan 2 martta ko'pdir.

Beda o'simligi yuqori mahsulot beruvchi ozuqa ekin hisoblanadi. O'zining kimyoviy tarkibi hamda ozuqa moddalarining miqdori jihatidan beda boshqa ozuqabop o'simliklar qatorida birinchi o'rinda turadi. Shu bois beda yaxshi o'sadigan yerlarda boshqa ozuqa o'simliklarini tanlab o'stirish kerak emas. Quruq beda karotin, protein va vitaminlarga boy bo'lib, usiz chorva mahsulordligini oshirib bo'lmaydi. Beda pichani eng arzon oqsilli ozuqa hisoblanadi. Hamma paxta yetishtiruvchi respublikalarning iqlim sharoitida beda pichanidan yuqori hosil olish imkoniyatlari bor. Odatda, beda e'tibor bilan o'stirilganda 150-200 s/ga pichan olish mumkin.

Beda bilan boshqa ekinlar qo'shib ekilgandan keyin olingen paxta hosili faqat beda ekib olingen hosildan kam bo'lmaydi. Ayrim hollarda, aralashma o'tmishtosh ekinlardan keyin ikkinchi yili olingen paxta hosili toza beda buzilgandan so'ngi olingen hosildan ortiqroq bo'lishi mumkin.

Almashlab ekishda bedadan keyin paxta hosili talay miqdorda ortadi. O'zPITIda o'tkazilayotgan ko'p yillik tajribada 1926 yildan buyon uzlusiz, surunkasiga paxta ekilib almashlab ekish samarasi o'rganilgan. Mana shu tajribada 60 yilda o'rtacha paxta hosildorligi mutlaqo o'g'it bermasdan o'stirilgan g'o'zada gektariga 14,9 sentner bo'lgan.

Ko'p yillar davomida mineral o'g'it berib o'stirilgan g'o'zannng hosildorligi 32,2 sentnerga yetgan. Faqat organik o'g'it (go'ng) berilgan holda esa bu ko'rsatkich 30,8 sentnerni tashkil etgan.

Bedapoya buzilgandan keyin uning ijobjiy samarasi necha yil davom etishligi, ayniqsa, yengil kamquvvat tuproqlarida qanday bo'lishi amaliy tomonidan diqqatga sazovordir.

Oraliq ekinlar samaradorligini chuqur o'rganish maqsadida juda ko'p ilmiy ishlar bajarildi. Bu sohada N.A.Malitskiy (1969), E.P.Gorelov (1972), R.Oripov (1983) tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Oraliq ekinlar odatda asosiy o'simliklardan keyin kech yozda yoki erta kuzda ekiladi va ular dalada qishlab chiqadi.

Paxtachilik zonasida qish davrida qisqa vaqt bo'lsada qattiq sovuqlar bo'ladi. Shuning uchun oraliq ekin sifatida foydalaniladigan o'simliklar sovuqqa chidamli bo'lishlari kerak. Shuni ham esda tutish kerakki, kuz-qish va erta bahor paytida 1000 darajadan ortiq samarali harorat bo'lishi oraliq ekinlardan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Chunki ularning ekishdan hosilini yig'ib olishgacha davrida 700-800 daraja samarali harorat yetarli bo'ladi. Demak, kuz-qish va erta bahor davrida mahsulot olish uchun imkoniyatlar kattadir. Ko'p o'simliklar ichida butgullilar o'zining tezpisharligi bilan farq qiladi. Ularning ba'zi birlari gektariga 40 tonna va undan ortiq ko'kpoya to'playdi va 400-450 daraja samarali harorat sarflaydi holos. Oraliq ekinlarni o'stirib ko'p miqdorda organik modda to'plashi uchun mineral o'g'itlar ishlatisa, ijobjiy natija olish mumkin. Mineral o'g'itlar ta'sirida oraliq ekinlar hosili ortadi, sifati yaxshilanadi va o'rim vaqt 2-3 haftaga tezlashadi.

EKOLOGIYA

NATIJA VA MUHOKAMA

So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asosan respublikamizning paxta maydonlarida oraliq ekin sifatida foydalanish mumkin bo'lgan istiqbolli O'simliklar deb kuzgi javdar, arpa, suli, gorchitsa, ko'p o'rimli butgullilar hamda butgullilarga donli o'simliklar bilan aralashdirilib ekish samarali natija beradi. Ertapishar o'simliklardan keyin hamda qo'lda paxta teriladigan maydonlarda shabdar, bersim, vika, ko'k no'xat va ularning donililar va butgullilar bilan aralashmasini ekish mumkin. E.P.Gorelov tajribalarida samarali oraliq ekinlar bo'lib, shabdar, bersim, ko'k no'xat (hamma navlari emas), kuzgi vika, rangut, kuzgi raps, arpa, javdar deb topilgan. Oraliq ekinlar ekishning samarali muddati, hamma o'simliklar uchun sentyabr oyining oxiri hisoblanadi. Sentyabrda ekilgan urug'larning maysalari oktyabr oyi boshlarida unib chiqadi. Javdar va arpa yaxshi tuplanadi, butgullilar barglardan rozetkalar hosil qilib qishlab qoladi. Qish fasilda qisqa muddatli issiq harorat (5 gradus) bo'lib qolsa o'simliklar o'sadi. Mart oyining o'rtalarida butgullilar yoppasiga shonalaydi (keyinroq kuzgi vika ham shonalaydi). So'ng shabdar, raps va boshqa o'simliklar gullaydi. Aprel oylinining boshiga kelib oraliq ekinlar ko'k o'g'it sifatida haydab yuborishga yoki chorva mollariga ozuqa sifatida o'rib berishga tayyor bo'ladi. Oraliq ekinlar ko'kpoyasining hosili gektariga quyidagicha: shabdar - 239,7 sentner, bersim - 153,5, rangut- 349,7, kuzgi raps -331,8, javdar-251,4 sentner bo'ladi.

Barcha sinab ko'rilgan o'simliklar ichida eng sovuqqa chidamli va eng hosildor deb rangut 700 sentner gacha ko'kpoya hosili bergen. Rangutning o'q ildizi tuproqning chuqur qatlamlarigacha kirib boradi va umumiyligi fosforni eritish qobiliyatiga ega. Ya'ni ildizdan oqib chiqqan organik suyuqliklar tuproqdagi fosforni eritib xarakatchan shaklga aylantiradi. Rangutni ko'k o'g'it sifatida ishlatsila yaxshidir, raps ham sovuqqa chidamli, hosildor va boshqa ijobjiy xususiyatlari ega. Uning tarkibida zararli alkoloidlar yo'q. Shu bois, uni hayvonlar yaxshi iste'mol qiladi, Shu sababli rapsni ozuqa sifatida va ko'k o'g'it sifatida haydab yuborish ham mumkin.

XULOSA

Qilib aytganda oraliq ekinlar ko'k o'g'it sifatida haydab yuborilganda tuproqning agroximik, agrofizik va mikrobiologik xossalari ijobjiy tomonga o'zgaradi. Natijada tuproq unumdonligi ortadi, ulardan keyin paxta hosildorligi ko'payadi. Oraliq ekinlarning tuproq xususiyatlariiga ta'sir qilish darajasi shu maqsadda foydalanadigan o'simliklar turiga, parvarish qilish sharotlariiga bog'liqdir. Qulay sharotlarda oraliq ekinlar bahorga borib gektariga 20-40 tonna va undan ham ko'p ko'kpoya, 40-70 sentner ildiz va ang'iz qoldiqlari to'plab, tuproqni boyitadi. Tuproq tarkibida gumus, azot va xarakatchan fosfor miqdori ko'payadi. Oraliq ekinlar ko'k o'g'it sifatida haydab yuborilganda (sideratsiya) tuproqning agroximik xossalari ham ijobjiy tomonga o'zgaradi (0,25 mm) yirik donador agregatlar o'tloq-bo'z tuproqlarda 7 foizga, og'ir bo'z tuproqlarda 4-9 foiz ko'payadi, tuproq haydov qatlami zichligi 0,05-0,07 g sm³ ga kamayadi.

Oraliq ekinlar ta'sirida o'simliklarning ildizi xam yaxshi rivojlanishi hisobiga hosildorlikni gektariga 10 sentnergacha oshirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

- Mirziyoyev Sh.M. Yerlarni muhofaza qilish va ularidan oqilona foydalanish borasida geodeziya va kartografiya faoliyatini nazoratini kuchaytirishni takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida. Tashkent. 2017. Farg'ona haqiqati.
- Baxodirov N. Tuproqshunoslik, Tosh. 1975.
- Nazarov M., Mamadaliev A. Dehqonchilikda ilg'or texnologiya, Tosh. Mehnat, 1991
- Abdullahayeva, M.T.L. (2022). Ko'kalamzorlashtirish tirik organizmlar kafolatidir. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 710-715.
- Abdullahayeva, M., & Gaybullayeva, M. (2022). No 'xatni fotosintez jadalligi va maxsuldarligiga ekologik omillar ta'siri. *ijodkor o'qituvchi*, 2(22), 341-346.
- Abdullahayeva, M.T. (2023). Manzarali o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati. *World of Science*, 6(5), 16-20.
- To'lanovna, A.M., & Djurayevna, A. G. (2022). Ekologik omillarning inson salomatligiga ta'siri.
- To'lanovna, M.A., & Erkinovna, U. T. (2022). Farg'ona shahar infrastrukturasida manzarali o'simliklarning tutgan o'rni va ro'li. *innovation in the modern education system*, 2(18), 360-365.